INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI: GRAMMATIK VA SEMANTIK FARQLAR

Suvanova Xayriniso Bahriddin qizi
O'qituvchi, Ingliz tili nazariyasi va metodikasi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
uzoqovaxayriniso95@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida zamon kategoriyasining ifodalanish usullari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Ingliz tilidagi zamon va aspekt shakllari tizimi o‘zbek tilidagi fe'l zamon shakllari bilan grammatik, semantik va funksional jihatlardan chog‘ishtiriladi. Ingliz tilida zamon ma'nosi ko‘pincha yordamchi fe'llar yordamida analitik tarzda ifodalanishi, o‘zbek tilida esa zamon asosan agglyutinativ affikslar va ko‘makchi fe'llar orqali shakllanishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, perfekt shakllari, davomiylik ma'nosi, eshitilganlik (evidensiallik) va zamonlar moslashuvi masalalaridagi asosiy farqlar yoritilgan. Tadqiqot natijalaridan ingliz tilini o‘qitishda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar yo‘l qo‘yadigan tipik xatolarning oldini olish maqsadida foydalanish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *zamon kategoriyasi, aspekt, qiyosiy-tipologik tahlil, analitik shakl, agglyutinatsiya, perfekt, evidensiallik, zamonlar moslashuvi, interferensiya.*

Аннотация. *В статье проводится сравнительно-типологический анализ способов выражения категории времени в английском и узбекском языках. Система видо-временных форм английского глагола сопоставляется с временными формами узбекского глагола в грамматическом, семантическом и функциональном аспектах. Показано, что в английском языке значение времени часто выражается аналитически, при помощи вспомогательных глаголов, тогда как в узбекском языке время образуется главным образом агглютинативными аффиксами и вспомогательными*

глаголами. Рассматриваются основные различия в области перфектных форм, значения длительности, эвиденциальности и согласования времён. Результаты исследования могут быть использованы в преподавании английского языка для предупреждения типичных ошибок узбекоязычных студентов.

Ключевые слова: *категория времени, вид, сравнительно-типологический анализ, аналитическая форма, агглютинация, перфект, эвиденциальность, согласование времён, интерференция.*

Abstract. *This article presents a comparative typological analysis of the ways in which the category of tense is expressed in English and Uzbek. The English system of tense and aspect forms is compared with Uzbek verb tense forms in grammatical, semantic and functional terms. It is shown that in English temporal meaning is frequently expressed analytically by means of auxiliary verbs, whereas in Uzbek tense is formed mainly by agglutinative suffixes and auxiliary verbs. The main differences concerning perfect forms, progressive meaning, evidentiality and the sequence of tenses are discussed. The findings can be applied in English language teaching to prevent typical errors made by Uzbek-speaking learners.*

Keywords: *category of tense, aspect, comparative typological analysis, analytic form, agglutination, perfect, evidentiality, sequence of tenses, interference.*

Zamon kategoriyasi fe'lning eng muhim grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib, harakat yoki holatning nutq momentiga nisbatan vaqtdagi o'rnini ifodalaydi. B. Komri ta'rificha, zamon vaqtdagi joylashuvning grammatiklashgan ifodasidir [4, 9-b.]. Har bir tilda bu kategoriya o'ziga xos shakliy vositalar va ma'nolar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli turli tizimli tillarda zamon kategoriyasini qiyosiy o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki chet tilini o'qitish metodikasi va tarjima nazariyasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga mansub bo'lib, uning grammatik tuzilishida analitik vositalar, ya'ni yordamchi fe'llar va so'z tartibi muhim o'rin tutadi. O'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga kiradi va agglyutinativ tillar

qatoriga mansub: grammatik ma'nolar asosan so‘z o‘zagiga ketma-ket qo‘shiladigan affikslar orqali ifodalanadi. Ushbu tipologik tafovut ikki tildagi zamon shakllarining tuzilishida ham, ularning ma'no doirasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek talabalari eng ko‘p xatoni aynan zamon shakllarini qo‘llashda, xususan, Present Perfect va Past Simple, Present Simple va Present Continuous shakllarini farqlashda, shuningdek, o‘zlashtirma gapda zamonlar moslashuvi qoidasiga amal qilishda yo‘l qo‘yadilar. Bu xatolarning asosiy sababi ona tili tizimining chet tiliga ko‘chirilishi, ya'ni interferensiya hodisasidir.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida zamon kategoriyasini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish, ikki til o‘rtasidagi asosiy o‘xshashlik va farqlarni aniqlash hamda ularning ingliz tilini o‘qitishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: ikki tildagi zamon shakllari tizimini tavsiflash; ularning shakliy va ma'noviy xususiyatlarini chog‘ishtirish; bir-biriga to‘liq muvofiq kelmaydigan hodisalarni aniqlash hamda o‘qitish va tarjima jarayoni uchun xulosalar chiqarish.

Ingliz tilida zamon va aspekt masalalari R. Kvirk va hammualliflar [10], J. Lich [8], R. Haddlston va J. Pullum [6], D. Bayber va hammualliflar [1] kabi olimlarning fundamental grammatikalarida atroflicha yoritilgan. Zamon va aspektning umumnazariy talqini B. Komrining “Aspect” [3] va “Tense” [4] monografiyalarida berilgan bo‘lib, ularda zamon deyktik kategoriya, aspekt esa harakatning ichki vaqt tuzilishini ifodalovchi kategoriya sifatida bir-biridan farqlanadi. H. Reyxenbax taklif etgan nutq momenti, voqea momenti va hisob nuqtasi tushunchalari [12] zamon shakllarini, ayniqsa perfekt shakllarini tahlil qilishda hozirgacha keng qo‘llanib kelinmoqda.

O‘zbek tilida fe'l zamonlari A.N. Kononovning o‘zbek adabiy tili grammatikasiga bag‘ishlangan asarida [7], “O‘zbek tili grammatikasi”ning birinchi tomida [9], A. Hojiyev [5] va Sh. Rahmatullayev [11] ishlarida tizimli tavsiflangan.

Ingliz va turkiy tillarni qiyosiy-tipologik o‘rganishda J.B. Buranovning tadqiqoti [2] muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy va kontrastiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil materiali sifatida ikki tildagi grammatik manbalardan olingan misollar, badiiy va publitsistik matnlardagi jumlalar hamda ularning tarjimalari xizmat qildi.

1. Zamon shakllarining tuzilishi

Ingliz tilida fe’l morfologik jihatdan faqat ikki zamonni farqlaydi: o‘tgan zamon (wrote, worked) va o‘tgan bo‘lmagan zamon (write, writes). Kelasi zamon ma’nosi esa will/shall yordamchi fe’llari yoki be going to qurilmasi orqali analitik tarzda ifodalanadi. Shu bilan birga, ingliz tilida ikki aspektual qarama-qarshilik mavjud: davomli (be + -ing) va perfekt (have + III shakl). Zamon va aspektning birikishi natijasida an’anaviy grammatikalarda o‘n ikki zamon shakli ajratiladi [10; 8].

O‘zbek tilida zamon shakllari asosan sintetik yo‘l bilan, ya’ni fe’l o‘zagiga affikslar qo‘shish orqali hosil qilinadi: yozdi, yozgan, yozibdi, yozadi, yozyapti, yozmoqda, yozar, yozmoqchi. Bundan tashqari, edi, ekan, emish to‘liqsiz fe’llari yordamida murakkab (analitik) shakllar ham yasaladi: yozgan edi, yozayotgan edi, yozar edi, yozgan ekan [9; 11]. O‘zbek tilida zamon affiksidan keyin shaxs-son affiksi qo‘shiladi (yozdim, yozdik, yozdingiz), ingliz tilida esa shaxs-son faqat hozirgi zamon uchinchi shaxs birlikda (-s) va be fe’lining shakllarida ifodalanadi. Ikki tildagi asosiy shakllarning taxminiy muvofiqligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Ingliz tili zamon shakllari va ularning o‘zbek tilidagi muvofiqlari

Ingliz tilidagi shakl	Misol	O‘zbek tilidagi muvofiqlik
Present Simple	He writes letters every week.	-a/-y: U har hafta xat yozadi.

Ingliz tilidagi shakl	Misol	O‘zbek tilidagi muvofiqlik
Present Continuous	He is writing a letter now.	-yap/-moqda: U hozir xat yozyapti.
Present Perfect	He has written the letter.	-gan, -ib bo‘ldi: U xatni yozgan / yozib bo‘ldi.
Past Simple	He wrote a letter yesterday.	-di: U kecha xat yozdi.
Past Continuous	He was writing when I came.	-yotgan edi: Men kelganimda u xat yozayotgan edi.
Past Perfect	He had written it before I came.	-gan edi: Men kelgunimcha u xatni yozib bo‘lgan edi.
Future Simple	He will write tomorrow.	-a/-y, -r: U ertaga yozadi / yozar.
be going to	He is going to write.	-moqchi: U xat yozmoqchi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki til shakllari o‘rtasida birga-bir muvofiqlik yo‘q: bir ingliz shakliga bir nechta o‘zbek shakli, bir o‘zbek shakliga esa bir nechta ingliz shakli to‘g‘ri kelishi mumkin.

2. Hozirgi va kelasi zamon

Ingliz tilida Present Simple va Present Continuous shakllari o‘rtasida qat’iy farq mavjud: birinchisi odatiy, takrorlanuvchi harakatni, ikkinchisi esa nutq momentida davom etayotgan harakatni ifodalaydi (He works in a bank va He is working now). O‘zbek tilida ham bu farq -a/-y va -yap affikslari orqali beriladi: U bankda ishlaydi va U hozir ishlayapti.

Biroq o‘zbek tilidagi -a/-y shakli hozirgi-kelasi zamon shakli bo‘lib, u kelasi zamon ma’nosini ham ifodalaydi: Men ertaga Samarqandga boraman. Ingliz tilida

bu ma'no Present Simple bilan emas, balki will, be going to yoki Present Continuous shakllari bilan ifodalanadi: I will go / I am going to go / I am going to Samarkand tomorrow. Natijada o'zbek talabalari "I go to Samarkand tomorrow" kabi xato jumlalar tuzadilar.

Holat fe'llari masalasida ham farq kuzatiladi. Ingliz tilida know, understand, want kabi fe'llar odatda davomli shaklda qo'llanmaydi. O'zbek so'zlashuv nutqida esa tushunyapman, bilyapman kabi shakllar keng uchraydi, bu esa "I am understanding" tipidagi xatolarga olib keladi.

3. O'tgan zamon va perfekt

Ikki til o'rtasidagi eng muhim farqlardan biri perfekt shakllari bilan bog'liq. Ingliz tilidagi Present Perfect o'tgan harakatni hozirgi holat bilan bog'laydi, ya'ni harakat natijasining nutq momentidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Reyxenbax talqinida bu shaklda hisob nuqtasi nutq momenti bilan mos keladi, voqea esa undan oldin sodir bo'ladi [12].

O'zbek tilida perfekt alohida grammatik kategoriya sifatida shakllanmagan. Uning ma'nosi -gan shakli (Men Londonda bo'lganman – I have been to London), -ib bo'ldi ko'makchi fe'li (U ishni tugatib bo'ldi – He has finished the work) yoki -di shakli va hozirgina, allaqachon kabi leksik vositalar yordamida (U hozirgina keldi – He has just come) ifodalanadi. Ammo -gan shakli aniq o'tgan vaqt ko'rsatkichi bilan ham bemalol qo'llanadi: Men 2015-yilda Londonda bo'lganman. Ingliz tilida esa bunday holatda faqat Past Simple ishlatiladi: I was in London in 2015. Aynan shu nomuvofiqlik "I have been to London in 2015" kabi xatolarning manbai hisoblanadi.

O'zbek tilidagi -gan edi shakli ko'p hollarda Past Perfect ga to'g'ri keladi, biroq u boshqa voqeaga nisbatan oldinlikni emas, balki shunchaki uzoq o'tmishni ham bildirishi mumkin: Bu yerda bir vaqtlar maktab bo'lgan edi – There was once a school here. Demak, bu shakllar ham to'liq ekvivalent emas.

Shuningdek, o'zbek tilida aspektual ma'nolar ko'makchi fe'llar orqali ham ifodalanadi: -ib bo'lmoq, -ib chiqmoq (tugallanganlik), -ib o'tirmoq, -ib yurmoq, -

ib turmoq (davomiylik) [5; 9]. Masalan, U kitob o‘qib o‘tiribdi jumlasi inglizchaga He is (sitting and) reading a book tarzida o‘giriladi. Ingliz tilida bunday leksik-grammatik vositalar tizimi mavjud emas. Aksincha, o‘zbek tilidagi U kitob o‘qidi jumlasi kontekstga qarab He read a book yoki He was reading a book tarzida tarjima qilinishi mumkin, chunki o‘tgan zamonda davomlilik va davomsizlik oppozitsiyasi o‘zbek tilida majburiy emas.

4. Eshitilganlik (evidensiallik) ma’nosi

O‘zbek tilida o‘tgan zamon shakllari so‘zlovchining voqeaga munosabatini ham ifodalaydi. -di shakli odatda so‘zlovchi guvoh bo‘lgan voqeani, -ibdi, -gan ekan, -gan emish shakllari esa so‘zlovchi guvoh bo‘lmagan, boshqalardan eshitgan yoki keyin anglagan voqeani bildiradi: U keldi (ko‘rdim) – U kelibdi (keyin bildim) – U kelgan emish (eshitdim) [7; 11]. Ingliz tilida bunday grammatik kategoriya mavjud emas, bu ma’no leksik vositalar orqali beriladi: apparently, it turns out, they say, reportedly. Masalan, U kelibdi – Apparently, he has come / It turns out he has come. Tarjimada bu nozik ma’noning yo‘qolib ketmasligi uchun tarjimon kontekstga mos leksik vositani tanlashi zarur.

5. Zamonlar moslashuvi

Ingliz tilida bosh gapdagi fe’l o‘tgan zamonda bo‘lsa, ergash gapdagi fe’l ham, qoida tariqasida, o‘tgan zamon shakliga o‘tadi: He said that he was tired; She said she would come. O‘zbek tilida esa bunday qoida mavjud emas. Ergash gapdagi zamon nutq momentiga emas, balki bosh gapdagi voqeaga nisbatan belgilanadi va ko‘pincha sifatdosh yoki harakat nomi shakllari orqali ifodalanadi: U charchaganini aytdi; U kelishini aytdi. Ko‘chirma gapda esa asl zamon saqlanadi: U: “Charchadim”, – dedi. Shu sababli o‘zbek talabalari ko‘pincha “He said that he is tired” yoki “She said she will come” kabi jumlalar tuzadilar.

Tahlil natijalari ikki tildagi zamon kategoriyasining farqlari shakliy tuzilish bilan cheklanib qolmasligini ko‘rsatadi. Asosiy farqlar ma’no taqsimotida, ya’ni har bir til voqelikdagi vaqt munosabatlarini qaysi grammatik shakllarga “bo‘lib bergani”da namoyon bo‘ladi. Ingliz tili aspektual farqlarni, ayniqsa davomlilik va

perfektlikni, majburiy grammatik kategoriya sifatida ifodalaydi. O‘zbek tili esa so‘zlovchining voqeaga munosabatini (guvohlik yoki eshitilganlik) grammatik jihatdan majburiy ifodalaydi.

Bu farqlar ingliz tilini o‘qitishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, Present Perfect va Past Simple shakllarini o‘rgatishda vaqt ko‘rsatkichlariga (yesterday, ago, in 2015 va ever, already, yet, since) alohida e’tibor qaratish lozim. Ikkinchidan, o‘zbek tilidagi -a/-y shakli kelasi zamonni ham ifodalashini hisobga olib, kelajakdagi harakatni ifodalovchi ingliz shakllari o‘rtasidagi farqni tushuntirish zarur. Uchinchidan, Reyxenbax sxemasiga asoslangan vaqt chizig‘i diagrammalari talabalarga perfekt va davomli shakllarning mohiyatini tushunishda yordam beradi. To‘rtinchidan, ikki tomonlama tarjima mashqlari interferensiya xatolarini aniqlash va bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Tarjima amaliyoti uchun esa zamon shakllarini shaklma-shakl emas, balki kontekst va ma’noga tayangan holda tarjima qilish muhim ekani ayon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi evidensial shakllarni ingliz tiliga o‘girishda tarjimon mos leksik vositalardan foydalanishi talab etiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida zamon kategoriyasi umumiy vazifaga, ya’ni harakatni vaqtga nisbatan joylashtirish vazifasiga ega bo‘lsa-da, uning ifodalanish vositalari va ma’no tizimi sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz tilida zamon va aspekt yordamchi fe’llar orqali analitik tarzda ifodalanadi hamda davomlilik va perfektlik majburiy grammatik ma’nolar hisoblanadi. O‘zbek tilida zamon asosan affikslar orqali sintetik tarzda, qisman esa to‘liqsiz va ko‘makchi fe’llar yordamida ifodalanadi.

Tahlil natijasida quyidagi asosiy farqlar aniqlandi: o‘zbek tilida Present Perfect ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri grammatik muvofiqligi yo‘q; hozirgi-kelasi zamon shakli ingliz tilidagi hozirgi va kelasi zamon shakllarining bir nechtasiga mos keladi; o‘zbek tilida evidensiallik grammatik kategoriya sifatida mavjud, ingliz tilida esa leksik vositalar bilan ifodalanadi; ingliz tilidagi zamonlar moslashuvi qoidasi o‘zbek tilida mavjud emas.

Ushbu farqlarni hisobga olish ingliz tilini o‘qitishda interferensiya xatolarining oldini olishga, tarjimada esa asl matn ma’nosini to‘liq va aniq yetkazishga xizmat qiladi. Kelgusida mavzuni katta hajmdagi parallel korpuslar asosida, shuningdek, modallik va mayl kategoriyalari bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – Harlow: Longman, 1999.
2. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983.
3. Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976.
4. Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
5. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
7. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1960.
8. Leech G. Meaning and the English Verb. 3rd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2004.
9. O‘zbek tili grammatikasi. 2 tomlik. I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.
10. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
12. Reichenbach H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan, 1947.